



UILYAM BLEYK POEZIYASIDA ILOHIY- FANTASTIK OBRAZLAR INTERPRETATSIYASI

Muallif: Mannonova Feruzabonu Sherali qizi ¹

Affiliyatsiya: katta o`qituvchi, Ingliz tili 3-fakulteti, O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15201978>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Uilyam Bleyk ijodidagi ilohiy fantastik obrazlarning badiiy tahliliga qaratilgan bo`lib, unda mistik adabiyotda eng ko`p uchraydigan ilohiy va fantastik obrazlar tavsifi she`rlardan parchalar misolida o`ralgan. Bu obrazlar har bir insonning ichki dunyosi va ruhiy sayohatini tasvirlash uchun muhim vosita hisoblanadi. "Songs of Innocence and Experience" esa inson hayotining murakkabligi va tajribalar orqali shakllanishini ochib beradi. Bu obrazlar insoniy tafakkurni yoritish va ruhiy kamolot sari yetaklashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: fantastik obrazlar, ramz, ilohiy haqiqat, ruhiy sahoyat, mistik ta`limot, yo`lboshchi

Uilyam Bleyk poeziyasida ilohiy-fantastik obrazlar markaziy o`rin tutadi. U o`z asarlarida Injil, mistik ilhom va gnostik qarashlarni birlashtirgan holda abadiy haqiqat va insonning ruhiy sayohatini aks ettiradi. "Songs of Innocence and Experience" kabi to`plamlarida Xudo, farishtalar, Iso, Shayton, Behemot, Leviatan va Iblis kabi obrazlar orqali yaxshilik va yomonlik, gunoh va poklanish o`rtasidagi kurashni tasvirlaydi.

Professor Xu Jian-gangning firriga ko`ra, "The Marriage of Heaven and Hell" asarida Shayton norasmiy hikmat sohibi sifatida ko`rsatiladi¹. Biroq tadqiqotimizning obyekti hisoblangan, "Ma`sumlik va tajriba qo`shiqlari"dagi she`rlarda masalan, "The Lamb" va "The Tyger" she`rlarida Xudoning ikki qutbli – rahmdil va qo`rqinchli tabiatini aks ettiruvchi ramzlar mavjud. Blake fantastik obrazlar orqali inson ruhining cheksiz imkoniyatlarini va ilohiy haqiqatni anglash yo`lidagi sinovlarni ifodalaydi. Quyida "Ma`sumlik va Tajriba qo`shiqlari" to`plamidagi ilohiy fantastik obrazlarni tahliliy tarzda ko`rib chiqamiz.

"Ma`sumlik va Tajriba qo`shiqlari" da Xudo, Ota va Yaratuvchi (Maker) tushunchalari orqali ifodalanadi. Uilyam Bleykning "The Chimney Sweeper" (Songs of Innocence) she`ridan olingan parchada Xudo obrazi diniy va ijtimoiy kontekstda tahlil qilinishi mumkin.

*And the angel told Tom if he'd be a good boy,
He'd have God for his father and never want joy.*

¹ XU Jian-gang, Imagination and Emotion in William Blake's Poems. Journal of Literature and Art Studies, January 2016, Vol. 6, No. 1, 17-22

Misralarda Xudo "ota" sifatida tasvirlanadi: *"He'd have God for his father and never want joy."* Bu tasvir an'anaviy xristian e'tiqodiga asoslanib, Xudoning bolalar va begunoh insonlar haqida g'amxo'rlik qilishiga urg'u beradi. Tom tushida farishtadan shunday so'zlarni eshitadi va bu unga taskin beradi. Bu nuqtai nazardan, Xudo mehribon va najot beruvchi sifatida gavdalanadi.

Uilyam Bleykning *"The Divine Image"* ("Ilohiy tasvir") she'ridan olingan quyidagi mirsalar ham Xudo obraziga murojaat etiladi.

*Where mercy, love, and pity dwell,
There God is dwelling too.*

tarjimasi

*Qayerda mehr, sevgi va rahm-shafqat bo'lsa,
O'sha yerda Xudo ham yashaydi.*

Bu she'rda Bleyk Xudoni an'anaviy diniy- ilohiy tasvirlardan farqli ravishda taqdim etadi. She'rda quyidagi fikr ilgari suriladi: agar insonlar mehr, sevgi va rahm-shafqat ko'rsatsa, demak, Xudo ham ularning qalbida yashaydi. Bu fikr xristianlikdagi an'anaviy "Xudo osmonda" degan tasavvurni emas, balki Xudoning insoniy xulq-atvorda mujassamligini aks ettiradi.

Farishta obraz har qanday mistik adabiyotda markaziy ilohiy- fantastik obrazlar siraga kirib, ular ilohiy va insoniy olam o'rtasidagi vositachi sifatida tasvirlanadi. Turli mistik ta'limotlarda farishtalar turlicha talqin qilinadi, lekin ularning asosiy vazifasi Xudoning amrlarini yetkazish, himoya qilish va ilohiy haqiqatlarni oshkor qilish bilan bog'liq. Uilyam Bleyk o'z to'plamida farishtalar obraziga 12 o'rinlarda murojaat etgan ha ularda turli ma'nolar yuklangan.

*And by came an angel who had a bright key,
And he open'd the coffins and set them all free*
tarjimasi

*Va yonimizdan bir farishta o'tdi, qo'lida yorqin kalit,
U tobutlarni ochdi va ularni ozod qildi.*

"The Chimney sweeper" ("Mo'ri tozalovchi bola") she'rda farishta ozodlik va najot ramzi sifatida tasvirlangan. Misralar orqali Uilyam Bleyk "farishta qul bo'lib ishlayotgan va azob chekayotgan bolalarni ozod qiladi" deb farisha obrazini vositachi emas, yordamchi va qutqaruvchi kuch sifatida ta'riflaydi.

*Soon my angel came again:
I was arm'd, he came in vain;
For the time of youth was fled,
And grey hairs were on my head.*

tarjimasi

*Tez orada farishtam yana keldi,
Ammo men qurollangandim, u behuda keldi;
Chunki yoshlik vaqti o'tib ketgan edi,
Mening sochlarimga oq tushgan edi.*

Uilyam Bleykning "The Angel" ("Farishta") she'ridan olingan ushbu parchada farishta ilohiy ilhom va ma'naviy yo'lbo'shchi sifatida tasvirlanadi. She'r boshida farishta yosh yigitga keladi, bu esa ilohiy ilhom va ma'naviy poklikning yosh davrda mavjud bo'lishi bilan bog'liq. Ammo, vaqt o'tib inson farishtani qabul qilishga tayyor bo'lmaydi,

ya'ni hayotning materialistik va ehtirolarga to'la bosqichi ma'naviyatdan uzoqlashishga sabab bo'ladi. Farishta yana qaytib kelganda, inson hayotining oxirgi bosqichiga yetib kelgan bo'ladi, ammo endi kech bo'lgan. Bu misralar insonning yoshlik davrida ruhiy haqiqatni qabul qilishga tayyor bo'lishi, lekin hayotning o'tkinchi zavqlari tufayli undan uzoqlashishi va ma'naviyatga qaytganda kech bo'lishi haqida falsafiy fikr beradi.

Hech bir mistik asar yo'qki unda farishta obraziga yondosh ravishda Shayton obrazi berilmasa. Biroq Uilyam Bleyk shayton obraziga o'z asarida umuman teskari tus beradi.

*And God like a Father rejoicing to see
His children as pleasant and happy as He,
Would have no more quarrel with the devil or the barrel,
But kiss him and give him both drink and apparel. (yuqorida tarjimasi berilgan)*

"The Little Vagabond" she'rida Shayton obrazi kelgan yagona misra hisoblanib, Uilyam Bleyk an'anaviy xristian ta'limotidan farqli ravishda Shaytonni faqat mutlaq yovuz kuch emas, balki murakkab, ba'zan esa insoniy xususiyatlarga ega mavjudot sifatida tasvirlaydi. Bleykning she'rlarida Shayton ba'zida inson ongi va erkin fikrlash timsoli, ba'zida esa Xudoning mehribonligi qarshisida kechirilishi mumkin bo'lgan mavjudot sifatida tasvirlanadi. An'anaviy dinlarda Shayton Xudoga qarshi turuvchi mutlaq yovuz kuch sifatida tasvirlanadi. Ammo Bleykning bu misralarida Xudo Shayton bilan jang qilish o'rniga uni kechiradi, unga ichimlik va kiyim beradi. Shayton bu yerda insonning noto'g'ri yo'l tutgan qismiga o'xshaydi – agar Xudo uni kechirsa, u ham to'g'ri yo'lga qaytishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, Mahmud Shabistariy ham Uilyam Bleyk ham Shaytonni jazolanishga mahkum yovuz kuch emas, balki inson ongi va ilohiy haqiqatni tushunish yo'lidagi bir qism deb ko'rsatadi.

Uilyam Bleykning mahorati ilohiy -fantastik obrazlarni mohirlik bilan so'zlar ortiga yarishganida edi. Aynan "Bibliya"da keltirilgan fantastik mahluqlar Leviatan va Behemot obrazlari aynan metaforik metonimik vositalar orqali misralarga ko'chiradi. Leviatan – tartibsizlik, nafsiy kurash yoki dengiz yirtqichi (shaytoniy kuch yoki sinov ramzi). Behemot – yer qudrati, hayvoniy kuch yoki jismoniy istaklar (moddiy dunyo bilan bog'liq). Blake har ikkisi insonning ichki kurashi va ruhiy taraqqiyotini aks ettiradi.² "The little girl lost" ("Yo'qolgan qizcha") she'ridagi ushbu misralar aynan shunga yaqqol misol bo'la oladi.

*Sleeping Lyca lay: While the beasts of prey,
Come from caverns deep, View'd the maid asleep.*
tarjimasi

*Uyqudagi Lika yotardi,
Maxluqlar esa,
Chuqur g'orlardan chiqib,
Qizning uyquda yotganini kuzatardi.*

Uilyam Bleykning yirtqich hayvonlari ham bunday sinovlarni aks ettirishi mumkin – ular insonni hayotiy tajribalar orqali shakllantiradi.

² Yasser, K. Aman. Uilyam Bleykning *The Tyger* va U.B. Yeytsning *The Second Coming* asarlarida Mahshariy Hayvon obrazi. Tanqidiy tadqiqotlar. 2021. 54- bet.

XULOSA

Uilyam Bleykning *"Songs of Innocence and Experience"* asarlarida ilohiy fantastik obrazlar inson hayotining ikki bosqichini – begunohlik va tajriba orqali yetuklikka erishish jarayonini aks ettiradi. **Farishtalar** – ba'zan himoya qiluvchi, ba'zan esa sinov beruvchi kuch sifatida tasvirlanadi. **Shaytoniy obrazlar (Shayton, Leviatan, Behemot)** – begunohlikning yo'qolishi, insonning dunyoviy vasvasalarga duch kelishi bilan bog'liq ramzlar. **Xudo va Ota obrazi** – goh mehribon, goh qattiqqo'l hukmdor sifatida tasvirlanib, ilohiy adolat va insonning sinovlari orasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M. Mahmudova. Jahon adabiyoti. Buzoro. 2024.
2. U. Hamdamov. A. Qosimov. Jahon adabiyoti. Toshkent. 2017.
3. V. Serdechnaya. Uilyam Bleyk sovet qabulida: "Inqilobiy romantik" obrazining shakllanishi. Perm universiteti axborotnomasi: rus va xorijiy filologiya. 12-tom, 4-son. 2020.
4. XU Jian-gang, Imagination and Emotion in William Blake's Poems. Journal of Literature and Art Studies, January 2016.
5. Yasser. K. Aman. Uilyam Bleykning The Tyger va U.B. Yeytsning The Second Coming asarlarida Mahshariy Hayvon obrazi. Tanqidiy tadqiqotlar. 2021.
6. Yiling Wang. Uilyam Bleyk she'riyatida ijtimoiy haqiqatning ochilishi. BCP ta'lim va Psixologiya. 7- son.

